

GEPATIT A VIRUSINING TARQALISHI

DJurayeva Muxabbat Ergashovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali. Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası assistenti

Almardanova Zulxumor Djalilovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz Filiali. Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası assistenti

Mavzuning dolzarbligi: Gepatit A virusi — jigar hujayralarini zararlovchi o‘tkir yuqumli kasallik bo‘lib, u ko‘pincha suv va oziq-ovqat orqali yuqadi. Bugungi kunda hepatit A dunyo bo‘yicha eng keng tarqalgan enterovirusli infeksiyalardan biri hisoblanadi. Aholining sanitariya-gigiyena madaniyati past bo‘lgan hududlarda, ayniqsa bolalar orasida kasallikning yuqori darajada uchrashi kuzatiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu kasallikning mavsumiy o‘shish davrlari qayd etilmoqda. Shu boisdan virusning tarqalish yo‘llari, epidemiologik omillari va oldini olish choralari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Tadqiqotning asosiy maqsadi — hepatit A virusining tarqalish manbalari, yuqish mexanizmlari va ijtimoiy-gigiyenik omillarni aniqlash hamda kasallikning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Material va usullar: Tadqiqot davomida 2023–2024 yillar oralig‘ida respublikaning turli viloyatlarida qayd etilgan hepatit A holatlari tahlil qilindi. Epidemiologik usulda aholi orasidagi kasallanish ko‘rsatkichlari, suv namunalarining mikrobiologik tahlillari va sanitariya holatlari o‘rganildi. Ma’lumotlar statistik qayta ishlanib, yosh, jins, mavsumiylik va yashash sharoitlariga ko‘ra tahlil qilindi.

Natijalar va muhokamalar: Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, hepatit A bilan kasallanish asosan 5–15 yoshli bolalar orasida yuqori bo‘lgan. Infeksiya ko‘pchilik hollarda suv orqali yuqadi, ammo oziq-ovqat va maishiy aloqa yo‘llari ham aniqlangan. Yoz va kuz fasllarida kasallanish darajasi sezilarli oshgani kuzatildi. Suv havzalari va quduq suvlarida virusli ifloslanish belgilari qayd etilgan hollarda,

sanitariya nazoratining sustligi kasallik tarqalishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, immunitet darajasi past bo‘lgan aholida kasallik og‘ir kechishi aniqlangan.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, gepatit A virusining tarqalishi asosan suv va oziq-ovqat orqali, shuningdek, gigiyena qoidalariga amal qilmaslik bilan chambarchas bog‘liqdir. Kasallikning yuqori darajada uchrashi bolalar va sanitariya holati past hududlarda kuzatiladi. Mavsumiy tahlillar yoz va kuz oylarida infeksiya ko‘rsatkichlari keskin oshishini ko‘rsatdi, bu esa virusning tashqi muhitda barqaror saqlanishi bilan izohlanadi.

Oldini olish choralarining samaradorligi aholining gigiyenik madaniyati, ichimlik suvi sifatini nazorat qilish, shuningdek, profilaktik emlash dasturlarini keng joriy etish bilan bog‘liq. Shu sababli, gepatit A virusiga qarshi kurashda sog‘liqni saqlash tizimining muntazam epidemiologik nazorati, sanitariya-ma’rifiy ishlar va emlash tadbirlarini kuchaytirish eng muhim omil hisoblanadi.

